

## QADIMGI XORAZM DAVLATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT VA SHAHARLAR HAYOTI

**Qalandarova Zuxra Atanazarovna**

“Ichan-Qal’ा” davlat muzey-qo‘riqxonasi “Qadimgi Xorazm” bo‘limi ilmiy xodimi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to‘g‘risida, shuningdek Qadimgi Xorazm davlatining Qal’alari haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qadimgi Xorazm, Zardushtiylik, Oqchaxonqal’а, Tuproqqa’а, Zavkavkazye, Midiya, Druk Fragart, Shirartav, Ayazqal’а, kichik Qirqqizqal’а, Qo‘rg‘oshinqal’а, Jonbozqal’а.

### SOCIO-ECONOMIC LIFE AND LIFE OF CITIES IN THE ANCIENT STATE OF KHOREZM

#### ABSTRACT

This article provides brief information about the socio-economic life of the Ancient Khorezm State, as well as the Castles of the Ancient Khorezm State.

**Keywords:** Qadimgi Xorazm, Zardushtiylik, Oqchaxonqal’а, Tuproqqa’а, Zavkavkazye, Midiya, Druk Fragart, Shirartav, Ayazqal’а, kichik Qirqqizqal’а, Qo‘rg‘oshinqal’а, Jonbozqal’а.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida xalqimizning manaviy merosining asosi bo‘lgan tarixga, uning har tomonlama, chuqur va haqqoniy yoritilishiga e’tibor kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenri I.A.Karimov ta’kidlagandek, “Tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda, buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakillantirmoqda”.

Qadimgi Xorazmning ijtimoiy – iqtisodiy hayoti hozirgacha kam o‘rganilgan. Iqtisodiy hayoti arxeologik tadqiqot asosida o‘rganilgan bo‘lsa, ijtimoiy hayoti haqida deyarli manbalar saqlanmagan. U davrga oid ba’zi ma’lumotlarni tangalar va Tuproqqa’adan topilgan arxiv ma’lumot beradi. U B.A.Livich tomonidan o‘qilgan. 1948-1949-yillarda teri va yog‘ochga yozilgan 140 ta hujjat chiqib, ulardan 26 tasi saqlanib qolgan.

Qadimgi Xorazm davlatining oromiy yozuvi asosida shakllangan o‘z yozuvi bo‘lgan. Bu yozuv O‘rta Osiyo xududida shakllangan eng qadimi yozuv turiga kirib u dastlab mil. avv. VI asrga oid Oyburqal’ a yodgorligidan topilgan. Xorazm alifbosi 20 undosh harfdan iborat bo‘lgan. Qisqa unlilar ifodalanmagan. Ormiy yozuvidan tubdan farq qilgan. Bu xo‘jalik yozuvlari teriga yozilgan va xumda saqlangan. Vaqtlar o‘tib xum ichi loyga to‘lgan. Xo‘jjatlarda omborga topshirilgan un, yog‘, sharob, qoramol topshirilganligi haqida yozilgan. Bir hujjatda tilxat bor- unda Xorazm erasi bo‘yicha 231-yili Druk Fragart o‘g‘liga Shirartav tomonidan 10 dona arava g‘ildiragi berilganligi yozilgan.

Taxtaga yozilgan oila ruyhatlari ham topilgan. Ularda oilaga tegishli qullar ham kiritilgan. Oila qulchiligi bo‘lgan. Hujjatlarda otasining quli, onasining quli, xotining quli, ug‘lining quli deb keltirilgan.

Qo‘yqirilgan qal‘a – doira shaklida qurilgan hosildorlik ibodatxonasi – brazman bo‘lgan. Shuningdek, bu yerda munajjimlar ham ish olib borgan. Ya’ni astronomik kuzatishlar olib borilgan. U yerda astronomik va matematikani yaxshi bilgan koxinlar yashaganlar. Qal‘aning tashqarisida esa, axoli yashagan uylar, kanallar va sopol ishlab chiqirish ustaxonasi bo‘lgan. Bu esa bu yerda yashagan aholining Qo‘yqirilgan qal‘a bilan bog‘liq bo‘lganligi aniq. Xuddi shunday manzara Qal‘aliqir 2 da ham kuzatiladi. Qo‘yqirilgan qal‘a yodgorligida xo‘jalik hayotiga oid hujjatlar topilgan.

Xorazmliklar Zavkavkazye, Midiya, janubiy Kaspiybo‘yi hududi, Baqtriya, Sug‘d, Margiyona bilan tashqi savdo va madaniy aloqalarini olib borganlar.

Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo‘lgan. Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, shu davrda Xorazm hududida 300 dan ortiq shaharlar bo‘lgan . Ularning harobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu ma’lumotni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. O‘tgan asrning 70-yillar oxiriga kelib 300 dan ortiq yodgorliklar topilgan bo‘lsa , XX asrning 90-yillar oxirida ularning soni 400 ga yetgan - Xiva, Hazorasp, Ko‘hna-Urganch, Qandumqal‘a, Guldursun, Akchaxon qal‘a, Katta Aybuyirqal‘a, Voyangan... Kanallarning uzunligi 40-50 km va undan ham ortiq bo‘lgan. Qal‘alarning fortifikatsiyasi, ya’ni mudoaa tizimi nihoyatda mustahkam bo‘lgan. Barcha qal‘alarda nayzasimon shinaklari bo‘lgan ikki yarusli o‘q otadigan yo‘laklar, davrvoza odida labirint, mustaxkam burjlari bo‘lgan. Qadimgi Xorazm davlati chegaralari bo‘ylab chegara qal‘alari bunyod etilgan. O‘ng qirg‘oq Xorazmda Burli qal‘a, Ayazqal‘a, kichik Qirqqizqal‘a, Qo‘rg‘oshinqal‘a, Jonbozqal‘a, chap qirg‘oqda –Akchaxan qal‘a, Gaurqal‘a, Kangaqirqal‘a... Har bir bunday qal‘alar atrofida ochiq shakladgi manzilgochlар topilgan. Ularda orasida bir bino alohida ajralib turgan. Uning atrofi uzumzorlar va dalalar bilan o‘ralgan. Bu shu xududning hokimining yashashgan joyi bo‘lsa kerak. Bu esa, qishloq joylarida tabaqalanish jarayoni bo‘lganligidan darak beradi. Qo‘rg‘oshin

qal’adan ko‘p miqdorda yirik xumlar va chuqurchalar topilgan. Bu uning o‘sha xududning, qishloq jamoasining omborxonasi vazifasini o‘tganligi aniqlangan.

Qadimgi sharq poytaxt shaharlarida (masalan, Persopol) kuzatiladigan qabul marosimlari uchun mo‘ljallangan “yuz ustunli zal” bo‘lgan. U yerdan shohona marosimlar va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ko‘plab devoriy rasmlar ham topilgan. Bunda boshiga toj kiygan shoh suratlari ham topilgan. Shoh boshiga ilohiy qush-Humo qo‘nib turgani Oqchaxonqal’a haqiqatdan ham qadimgi Xorazm davlatining poytaxti ekanligini ramziy belgisi deb izohlashimiz mumkin.

Yozma manbalarga ko‘ra, qadimgi Xorazm davlatida Siyovushiylar sulolasi hukmron bo‘lgan. Bu ma’lumotni Xorazm tangalari tasdiqlaydi. Qadimgi Xorazm tangalari qariyb 1000 yillik davr mobaynida (mil.avv. II asrdan – milodiy VIII asrgacha) bir xil tarzda ishlangan: oldi tomonida hukmdor va orqa tomonida chavandoz tasviri bo‘lgan. Bu Xorazmning ma’naviy madaniyatida muqaddas chavandoz obrazi mavjud bo‘lganligini isbotlaydi. Xorazm afsonalari va Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, qadimgi Xorazm davlatiga Siyovush asos solgan.

Qadimgi Xorazm davlati o‘z taraqqiyoti jarayonida murakkab tarixiy davrni boshdan kechirgan. Uning tarixini keng, chuqur o‘rganish, taxlil etish va kelajak avlodga qoldirish bugungi kunda bizning asosiy vazifamiz sanaladi. Ulkan hududda markazlashgan davlatning tashkil topganligi turli xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarni nihoyatda rivojlanishiga olib keldi, o‘zaro urushlarga chek qo‘yilib, xalqning tinchligi ta’minlandi. Mirzo Ulug‘bek bu holatni shunday ifodalaydi: «Mo‘tabar tarixlarda bitilmish va zikr etilmishkim, Sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Eron va Turon davlati bag‘oyat osoyishtalikda va solim edi. Chunonchi, agar ko‘zi ojiz kampir qizil oltin to‘la tashtni boshiga qo‘yib Mashriqdan Mag‘ribga jo‘naydigan bo‘lsa, biror jonzot unga daxl qilmagan. Shoh shu darajada kuchaydiki, mamlakatda birorta ham o‘g‘ri qolmadi».

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., 1998.
2. Беруний Абу Райхон, Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968.
3. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979.
4. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности // Приаралье в древности и средневековье. – М.: Наука, 1998.
5. Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.К. Раскопки на Акшаханкале // Археологические исследования в Узбекистане 2000 г. – Самарканд, 2001.